BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA MUSTAQIL SO‘Z TURKUMLARINI O‘RGATISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistri
Normamatova Dilshoda Shamil qizi
dilshodanormamatova7@gamil.com
tel:+998942890125

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mustaqil so‘z turkumlarini o‘rgatish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati yoritilgan. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan “To‘g‘ri eshikni och” va “Yasovchi g‘ildirak” metodlari ta’lim jarayonida qo‘llanilib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, mantiqiy bog‘lanishlarni anglash, ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida innovatsion metodlarning samaradorligi tahlil qilinib, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ularning qo‘llash imkoniyatlari ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mustaqil so‘z turkumlari, zamonaviy texnologiyalar, interfaollik, boshlang‘ich ta’lim, metod, ijodkorlik.*

Annotation: *This article highlights the importance of using modern pedagogical technologies in teaching independent word groups to primary school students. The methods “Open the right door” and “Creative wheel” developed by the author are used in the educational process and serve to develop students' independent thinking, understanding of logical connections, and creative activity skills. During the study, the effectiveness of innovative methods was analyzed and the possibilities of their use in primary school native language lessons were scientifically substantiated.*

Keywords: *Independent word groups, modern technologies, interactivity, primary education, method, creativity.*

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida so‘z turkumlarini o‘rgatish alohida didaktik ahamiyat kasb etadi. Chunki 1–4-sinflarda o‘quvchilarning ona tili haqidagi bilimlari bosqichma-bosqich shakllanadi va bu jarayon ularning keyingi bosqichdagi nutqiy, tafakkuriy va grammatik tayyorgarligiga asos yaratadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ushbu jarayonni samarali tashkil etishga yordam beradi. Ayniqsa, metodlarning interfaolligi, vizuallik va o‘yin elementlariga asoslanganligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun eng qulay ta’sir vositasidir.

Tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan “To‘g‘ri eshikni och” metodi fe’lning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllarini o‘rgatishda samarali bo‘ldi. Ushbu metod mazmunan o‘quvchini qiziqtirishga, uni faol izlanishga undashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchi

tanlov asosida to‘g‘ri variantni topishga harakat qiladi. Bu jarayonda xato va to‘g‘ri javoblar “eshik” obrazida ifodalanib, o‘quvchining bilimi bosqichma-bosqich aniqlanadi. Metodning interfaolligi sababli o‘quvchilar o‘zaro musobaqalashadilar va bunda ta’limiy jarayon tarbiyaviy vazifalarni ham bajaradi.

Shuningdek, “Yasovchi g‘ildirak” metodi sifat yasovchi qo‘shimchalarni o‘rgatishda o‘zini oqladi. Bu metodning asosiy mohiyati — qo‘shimcha va asos so‘z o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘quvchi mustaqil kashf etishi va u orqali yangi sifatlarni hosil qilishidir. “G‘ildirak” shaklidagi vizual material orqali o‘quvchilar qo‘shimchalarni almashtirish yo‘li bilan yangi so‘zlar yasaydilar va ularni mazmunan tahlil qiladilar. Bu jarayon ularning ijodkorligini rivojlantirish, mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil so‘z turkumlarini o‘rgatishda zamonaviy texnologiyalar, xususan, yangi metodlar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning til haqidagi bilimlarini mustahkamlash, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov U. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Yo‘ldosheva D. Boshlang‘ich sinfda til o‘qitish metodlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
3. G‘ulomov A., Usmonov S. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.